

Oriental Journal of Education



SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF CONFLICTS IN MILITARY FAMILIES AND WAYS OF THEIR RESOLUTION

Mohigul Jalolova

Acting Associate Professor, Department of Pedagogy, Psychology and Physical Culture

Andijan Branch of Kokand University

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: military serviceman, official duty, spousal relations, family roles, family conflict, desocialization, family stability, satisfaction with family relationships.

Received: 05.06.26

Accepted: 06.06.26

Published: 07.06.26

Abstract: While other structures in society are developing rapidly, the phenomenon of the family serves as a pillar of stability for military personnel. The family environment significantly influences the effectiveness of an employee's military-professional activity, their psychological readiness to fulfill their official duties, and the healthy moral climate within military collectives. Therefore, understanding the psychological characteristics of harmonious and incompatible relationships within a serviceman's family is a pressing task today.

HARBIY OILALARDA YUZAGA KELADIGAN IXTILOFLARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI

Mohigul Jalolova

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi

v.v.b dotsenti, p.f.f.d (PhD)

e-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Andijon, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, xizmat burchi, er-xotin munosabatlari, oilaviy rollar, oilaviy nizo, desotsializatsiya, oilaviy barqarorlik, oilaviy munobatlaridan qoniqish.

Annotatsiya: Jamiyatdagi boshqa tuzilmalar tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan bir vaqtda, oila fenomeni harbiy xizmatchilar uchun barqarorlik tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. Oila muhiti hodimning harbiy-kasbiy faoliyati samaradorligiga, xizmat burchini bajarishga bo‘lgan ruhiy tayyorligiga, harbiy jamoalardagi sog‘lom ma‘naviy muhitga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, harbiy xizmatchi

oilasidagi o'zaro uyg'un va nomuvofiq munosabatlarning psixologik xususiyatlarini tushunish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ КОНФЛИКТОВ В СЕМЬЯХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ И ПУТИ ИХ РАЗРЕШЕНИЯ

Моҳигул Жалолова

*Исполняющая обязанности доцента кафедры педагогики, психологии и физической культуры
Андижанский филиал Кокандского университета*

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: военнослужащий, служебный долг, супружеские отношения, семейные роли, семейный конфликт, десоциализация, семейная стабильность, удовлетворенность семейными отношениями.

Аннотация: В то время как другие структуры общества развиваются быстрыми темпами, феномен семьи служит опорой стабильности для военнослужащих. Семейная среда оказывает существенное влияние на эффективность военно-профессиональной деятельности сотрудника, его психологическую готовность к выполнению служебного долга, здоровую моральную атмосферу в военных коллективах. Поэтому понимание психологических особенностей гармоничных и негармоничных отношений в семье военнослужащего является актуальной задачей сегодняшнего дня.

Kirish. Harbiy xizmatchilarning oilalari alohida ijtimoiy-strukturalaviy subkategoriyani tashkil etib, harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ular oldida oila a'zolarining ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi hamda ularning ijtimoiy mobilligi va tashqi muloqot tizimini cheklovchi spetsifik ijtimoiy-barkamollik to'siqlari – desotsializatsiya omillari yuzaga keladi. Oiladagi o'zaro munosabatlar o'z navbatida harbiy xizmat talablariga, harbiy burchni bajarish bilan bog'liq holatlarga bo'ysunadi. Binobarin, bunday oilalarda yuzaga keladigan ziddiyatlarning o'ziga xosligi o'z oilaviy ehtiyojlarining harbiy kasbiy muhit qoidalari hamda rigit ijtimoiy muhit bilan to'qnashuvidan kelib chiqadi.

Materiallar va metodlar. Oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab va serqirrali o'zaro munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, o'zbekistonlik olimlar (M.Davletshin, V.Karimova, G'.SHoumarov, E.G'oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inov, F.Akramova, G.Yadgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov va boshqalar) tomonidan tadqiqotlarga asoslangan holda o'rganilgan. Ularda ko'proq o'zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an'analar nuqtai nazaridan

oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Lekin harbiy xizmatchilar oilalarining o'ziga xosligi borasida izlanishlar salmoqli bo'lib, yaqin yillarda B.S.Ashirmatova (harbiy oilalarda milliy qadriyatlarning ijtimoiy-falsafiy jihatlari), X.X.Ibragimova (kasbiy faoliyat va ijtimoiy moslashuv determinanti) hamda S.I.Ro'zimova (harbiy oilalardagi destruktiv stress omillari) kabi tadqiqotchilar tomonidan muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Biroq, ushbu ilmiy izlanishlarning mavjudligiga qaramasdan, aynan ushbu toifadagi oilalarda rollar ixtilofi (konflikti), er-xotinning oilaviy rollarni sub'ektiv qabul qilishi va ularning kelib chiqish mexanizmlari ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yetarlicha yoritilmagan bo'lib, mazkur maqolaning obyekti sifatida dolzarblik kasb etadi.

Ushbu muammoni empirik jihatdan o'rganish va uning metodologik mezonlarini belgilash, birinchi navbatda, harbiy xizmat sharoitining oila a'zolari psixikasiga va xulq-atvoriga ko'rsatadigan o'ziga xos ta'sir doirasini tahlil qilishni taqozo etadi. Fandagi mavjud metodologik konseptlarga ko'ra, ko'plab harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligi quyidagilarda aks etadi:

1. Harbiy xizmatning qat'iy kun tartibi, to'satdan yuzaga keladigan xizmat vazifalari va nizam talablari ta'sirida oila a'zolarining o'z rollari hamda majburiyatlarini qayta taqsimlashga bo'lgan tayyorligi.

2. Atrof-muhitning o'zgarishiga yuqori moslashuvchanlik (tez-tez ko'chib yurish, yashash joyi, ish joyi, maktab va h.k o'zgartirish).

3. Psixologik stressga chidamlilik, chunki harbiy xizmatchining oilasi yangi joyda bir qator ijtimoiy muammolarga duch kelishi mumkin (uy-joy topish, ishga joylashish, bolalar ta'lim muassasasidan joy olish, tibbiy yordam ko'rsatish).

4. Ijtimoiy deprivatsiya yoki muloqotning yetishmasligi, bu xizmat faoliyatining o'ziga xos (spetsifik) shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lib, oila ichidagi psixologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy aloqalarning cheklanganligi birgalikda vaqt o'tkazish, tizimli dam olishning yo'qligi, doimiy navbatchiliklar, xizmat safarlari va mashg'ulotlar e'tibor va g'amxo'rlikka bo'lgan o'tkir ehtiyojni keltirib chiqaradi, bu esa har doim ham tizim xodimining xizmat reglamenti bilan uyg'unlashmaydi.

5. Uzoq garnizonlarda yashash tufayli yaqinlar bilan muloqotning yetishmasligi.

6. Harbiy xizmatchining rafiqasining hissiy barqarorligi va chidamliligi, turmush o'rtog'ining harbiy xizmatni muvaffaqiyatli o'tashi uchun sharoit yaratish qobiliyati, ayriliq qiyinchiliklariga, stressli vaziyatlarga, uning hayoti va sog'lig'i uchun xavotir va qo'rquvga munosib ravishda bardosh berishi.

7. Erkaklar jamoasi omilining doimiy ta'siri.

Harbiy hayot faoliyatining ushbu o'ziga xos determinantlari oilaviy mikromuhitda rollar muvozanatining buzilishiga va yashirin ixtiloflarning shakllanishiga zamin yaratishi mumkin. Mazkur

holatning real ko'rsatkichlarini va er-xotinlarning bir-biriga moslik darajasini baholash maqsadida empirik o'rganish ishlari olib bordik.

Natijalar va muhokama. Harbiylar oilalaridagi munosabatlarni o'rganish uchun biz ijtimoiy so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnomaning maqsadi er-xotin shaxsini bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha baholash, er-xotin obrazini yaratish va er-xotin munosabatlaridan qoniqish darajasini aniqlashdan iborat. So'rovnoma bir qator afzalliklarga ega: harbiylar oilalarining hayot faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga oladi, er-xotinlarning bir-birlari uchun ilgari noma'lum bo'lgan ba'zi yangi xususiyatlarini ochib berish, er-xotin munosabatlarini baholash va qayta baholash imkonini beradi. Biz 30 nafar harbiylar oilalari ishtirokida so'rovnoma o'tkazdik, bu bir qator xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Umuman olganda, nikohdan qoniqish darajasi ancha yuqori. Ishtirok etgan ayol respondentlarimizdan "oilangizdagi o'zaro munosabat yaxshimi" degan savolga 22,5% – ha, 5,4% – yo'q, 72,1% – qisman deb, ishtirok etgan erkak respondentlardan 98,2% – ha, 1,8% – qisman deb javob berdilar.

Sizning fikringizcha, turmush o'rtog'ingiz sizga qanchalik mos keladi, degan savolga erkaklar (85%) va ayollar (45%) "to'liq mos keladi" deb javob berishdi, 15% erkaklar va 55% ayollar "ko'proq mos keladi" deb hisoblashdi.

Ayol og'ir kasal bo'lib qolganda erning unga g'amxo'rlik qilishi haqidagi taxminni ayollarning 80%, erkaklarning 100% esa xotini g'amxo'rlikiga umid qilishini bildirgan.

Ijtimoiy hayotdagi faollik, do'stlar bilan muloqotga kelsak, erkaklarning 85 foizi ijtimoiy aloqalar ko'payganini, do'stlar doirasining kengayganini ta'kidladi, ayollarda esa bu ko'rsatkich biroz pastroq - 70 foizni tashkil etdi. Ayollarning 70 foizi erining do'stlarini o'z do'stlari deb tan olishga tayyor, 85 foizi esa xotini dugonalarini o'z do'stlari deb biladi.

Olingan statistik ma'lumotlar harbiy oilalarda barqarorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishiga qaramay, ularning ichki dinamikasida nizoli potensial mavjudligidan dalolat beradi. Xizmat faoliyatining qat'iy tartibi va oila a'zolarining individual ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik tizimli xarakterga ega bo'lib, destruktiv munosabatlar rivojlanishiga zamin yaratadi. Bizning tahlillarimizga ko'ra, ushbu toifadagi oilaviy nizolarning kelib chiqishining asosiy sabablari quyidagicha namoyon bo'ladi:

- oilada yetakchilikka da'vo qilish;
- yangi sharoitga moslashish qiyinchiliklari;
- oilada ham turmush o'rtog'ining(er) avtoritar muloqot uslubi;
- uy xo'jaligini yuritishda, vazifalarni taqsimlash muammolari, qolaversa er-xotin va ota-ona sifatida o'z majburiyatlarini bajarishdan qoniqmaslik;
- bolalarni ijtimoiylashtirishdagi qiyinchiliklar;

- bolalarni tarbiyalash metodlaridagi kelishmovchiliklar;
- ijtimoiy-maishiy sharoitlarni tashkil etishning qiyinchiliklari;
- moddiy ahvoldan qoniqmaslik;
- turmush o'rtog'ining qadr-qimmatini, ehtiyojlarini mensimaslik;
- sheriklarning jinsiy ehtiyojlarining qondirilmaganligi;
- e'tibor va mehrning yetishmasligi;
- oila byudjetini taqsimlashda moliyaviy kelishmovchiliklar, moddiy ta'minotdan qoniqmaslik;
- dam olish va bo'sh vaqtni o'tkazishdagi turli istaklar.

Tavsiya. Har bir oila muammosidan kelib chiqib er-xotin munosabatlariga individual yondashgan holda, psixolog mutaxassis sifatida harbiy xizmatchilar oilalaridagi nizolarni hal qilish usullari sifatida quyidagilarni taklif etamiz:

- birga yashash – ko'pgina harbiylar turli sabablarga ko'ra o'z oilalarini yangi xizmat joyiga ko'chirmaydilar: turmush o'rtog'ini ishga joylashtirish muammosi, bolani bog'chaga joylashtirish, bolalarning yangi yashash joyiga yomon moslashishi, iqlim mos kelmasligi va boshqalar. Masofa va vaqt har doim ham munosabatlarni saqlab qolishga yordam bermaydi;

- harbiy oilalardagi ayollarni ish bilan ta'minlash – xotinlarning turli kasblarga qayta o'qitishga tayyorligi, mintaqada talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha qayta tayyorlashni amalga oshirish zarur.

- uyda shinamlik bo'lishi kerak – oila o'chog'i, er-xotinning ikkalasi ham uyga kelib, iliq muhitga tushishi muhim;

- spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilmasligi – bu oiladagi va xizmatdagi barcha muammolarning yechimi deb o'ylamasligi kerak;

- nizoli vaziyatlarda: imkon qadar konfliktidan qochish – nizoli vaziyatlardan o'zini tiyishga intilish (ikkinchi tomonning emotsional barqaror holatini kutish);

- tushuntirish – yuzaga kelgan vaziyat haqida xotirjam, to'g'ri shaklda, uning sabablari va bartaraf etish usullarini aniqlagan holda suhbatlashish;

- yumshatish – bu taranglikni bartaraf etishga va normal munosabatlarga erishishga yordam beradi;

- har qanday muammoga adekvat munosabat bildirish – boshqa harbiy oilalarning xatolaridan(nizoli holatlaridan) saboq olish;

- intuitiv yon berish – murakkab hayotiy vaziyatlarda er-xotinning yon berishi;

- murosa – bir-biriga qarab qadam tashlash, o'z qarashlarini o'zgartirish qobiliyati. Har ikki tomon uchun ham eng qulay yechimni topish.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, harbiy xizmatchilar oilalarini ijtimoiy-psixologik jihatdan muhofaza qilish masalasi nafaqat alohida bir ijtimoiy guruhning ehtiyojlarini qondirish, balki

jamiyat barqarorligi, ijtimoiy xavfsizlik va inson kapitalini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, xizmat joyining tez-tez o'zgarishi, uzoq muddatli xizmat safarlari, yuqori darajadagi mas'uliyat va psixologik zo'riqishlar harbiy xizmatchilar oilasi a'zolarining ruhiy holatiga, oilaviy munosabatlariga hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ushbu oilalarning ijtimoiy va psixologik himoyasini ta'minlash tizimli, kompleks hamda ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab etadi.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan nazariy qarashlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, harbiy oilalarga yo'naltirilgan korreksion dasturlar, psixologik maslahat xizmatlari, stressni boshqarish texnologiyalari, oilaviy kommunikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan treninglar hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ularning hayot sifatini yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, professional psixologik yordamning muntazam va tizimli ravishda tashkil etilishi oilaviy nizolarni kamaytirish, emotsional barqarorlikni mustahkamlash hamda harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarning oldini olish imkonini beradi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy farovonligi va ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash davlatning mudofaa salohiyati bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki oilaviy muhitdagi barqarorlik harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatiga, xizmat vazifalarini samarali bajarishiga va psixologik tayyorgarligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, maqolada ilgari surilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish harbiy oilalarning ijtimoiy-psixologik barqarorligini ta'minlash, ularning hayot faoliyati sifatini oshirish hamda davlat xizmatining samaradorligini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, jamiyatning muhim instituti bo'lgan oila mustahkamlanib, ijtimoiy taraqqiyot va milliy xavfsizlikning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кондрашова Е.А. «Распределение ролей в семье и семейные конфликты»// ТРУДЫ СГА. Выпуск № 6, 2011, 68 с

2. Жалолова Моҳигул Одилжон кизи. (2023). Дисфункциональное распределение ролей в семье и его последствия. Европейский журнал педагогических инициатив и образовательной практики, 1(6), 15-18. Извлечено из <https://europeanscience.org/index.php/4/article/view/269>

3. Жалолова Моҳигул Одилжон кизи. (2023). Социальная среда в семье военнослужащего и распределение ролей в ней. Научный журнал Интент Ресерч, 2(5), 112-118.

4. Оила психологияси: Акад.лицей ва касб-хунар коллежлари ўқувчилари учун ўқув кўл./Ф.Б.Шоумаров, И.О.Найдаров, Н.А.Соғинов ва бошқа.; Ф.Б.Шоумаровнинг тахрири остида;

Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта-махсус таълим вазирлиги, Ўрта махсус, касб-хунар таълими маркази. – Т.: “Шарқ”, 2008. – 118 б.

5.<https://nauka.club/istoriya/drevnyaya-sparta.html>

6.<https://republic.ru/posts/99151>.